

YENGIL AVTOMOBILLARGA TAKSI SAROYINI LOYIHALSH

*Ikromov Nurillo Avazbekovich, t.f.n., dots,
Sunnatov Akbar Xolmurod o'g'li talaba 4 – kurs TVM,
Fozilov Bekzodbek Baxodir o'g'li talaba 4 – kurs TVM,
Qirg'izboyev Bekmurod Dilmurod o'g'li talaba 4 – kurs TVM.
Andijon mashinasozlik institute, Andijon, O'zbekiston
nurillo.08@mail.ru +998914794646*

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda O'zbekistonda mashinasozlik ishlab chiqarishda avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohasida avtoservis bozori shakllandi va unda raqobat paydo bo'ldi, bu esa xizmat ko'rsatish sifatini yanada ko'tarishga xizmat qiladi. Bunday sharoitda firma usulida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining ahamiyati katta.

Kalit so'zlar: Avtomobil, ishlab chiqarish, texnik xizmat, transport, servis, dillerlik, sifat, firma, korxonalar, ta'mirlash, bozor, jixoz.

Ba'zi bir avtotransport korxonalarining ishlab chiqarish texnika negizi (ICHTN) texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash vositalari va TXK va JT uchun turli xildagi texnologik jihozlar, moslamalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan bo'lib, avtomobillarni texnik tayyor holatda ushlab turishga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda ishchilarning mehnat unumdorligini va ish sifatini pasaytiradi [1].

Avtomobillarga xizmat ko'rsatish sohasida avtoservis bozori shakllandi va unda raqobat paydo bo'ldi, bu esa xizmat ko'rsatish sifatini yanada ko'tarishga xizmat qiladi. Bunday sharoitda firma usulida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining ahamiyati katta.

Ular daromadining 85-90 foizini avtomobil va ehtiyot qismlar sotish, 10-15 foizini texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tashkil etadi. Shuning uchun ular mustahkam moddiy texnika bazasiga ega, eng zamonaviy diagnostik asboblarni, qurilmalar va stendlar bilan jihozlangan yuqori malakali mutaxassis va ishchilar bilan ta'minlangan firmaviy avtoservis korxonalarida avtomobillarni sotish, ularga sotisholdi davridagi, kafolat davridagi va ko'pgina avtomobillar uchun esa kafolatdan keyingi davrdagi servis xizmati ko'rsatiladi. UzAutoMotors AJ korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan «Shevrolet» firmasining «Gentra», «Nexia-3», «Traceker» avtomobillari O'zbekiston va xorijiy avtomobil bozorini yanada boyitdi va firmaviy servis xizmati ko'rsatishning mavqeini yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Dunyo amaliyotida avtomobilsozlik kompaniyalari o'zlari

ishlab chiqargan avtomobillarni xaridorlarga sotish uchun texnik xizmat ko'rsatuvchi, ehtiyot qism va ashyolar bilan savdo qiluvchi korxonalar majmuasi bo'lmish avtoservis korxonalarini tashkil etganlar. Keyinchalik avtomobil parkining o'sishi bilan avtomobilsozlik kompaniyalaridan mustaqil servis korxonalari ham paydo bo'la boshlagan [2, 3].

Avtotransport vositalarining texnik shay holda bo'lishi avtoservis korxonalari tomonidan o'z vaqtida o'tkaziladigan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash amallari orqali ta'minlanadi.

Avtoservis ham rejaviy-ogohlantiruvchi tizimga asoslangan bo'lib, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tog'risidagi Nizomlarda va avtomobilsozlik kompaniyalarining "Avtomobillardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma" va boshqa me'yoriy hujjatlarida o'z aksini topgan [4, 5].

Firma usulida xizmat ko'rsatish - avtomobil ishlab chiqaruvchi firmaning o'z avtomobillariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirishdir. Bu usulda xizmat ko'rsatilganda quyidagi tadbirlar to'liq bajarilishi lozim:

- har bir firma o'z avtomobillariga servis xizmat ko'rsatishni tashkil etadi;
- servis avtomobilning qaerda sotilishidan qat'iy nazar tashkil etiladi;
- servis to'liq shaklda, ya'ni sotish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning barcha turlari, ehtiyot qismlar va avtoekspluatatsion materiallar bilan ta'minlash amalga oshiriladi;
- firma usulida ishlovchi barcha servis korxonalari o'z firmalari tomonidan texnologik jihozlar, texnik hujjatlar, me'yoriy hujjatlar va ko'rsatmalar bilan to'la ta'minlanadi;
- firma o'z servis korxonalari uchun kadrlar va mutaxassislarni tayyorlaydi va ularning malakasini muntazam oshirib boradi [6, 7].

UzAutoMotors AJ ning ichki bozorda diler korxonalarini tanlash mezonlarida da'vogarlariga quyidagi talablar qo'yilgan:

1. Korxonaning yuridik maqomi bo'yicha talablar. Unda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar "yuridik shaxs" maqomiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lib, mustaqil xo'jalik yurituvchi korxonalar bo'lishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

2. Korxonaning ishlab chiqarish texnika imkoniyati talablarida quyidagi asosiy hollar ko'rsatilgan:

- asosiy faoliyat sifatida avtoservis xizmati ko'rsatish sohasida 5 yildan kam bo'lmagan tajribaga ega bo'lish;
- shaxsiy aylanma mablag'lar 500 mln. so'mdan kam bo'lmasligi;

- oxirgi 12 oy davomida korxonaning oylik tovar aylanmasi 100 mln. soʻmdan kam boʻlmasligi;

- texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha pullik xizmatlar hajmi umumiy tovar aylanmasi hajmining 10 % dan kam boʻlmasligi;

- avtosalonning namoyishlar zali (ixtisoslashgan avtodoʻkon) va UzAutoMotors AJ ning avtomobillari va ehtiyot qismlarini sotishga moʻljallangan maxsus shaxsiy maydonlari boʻlishi.

3. Avtosalon (avtomarkaz) qurilishi talablarida quyidagilar taʼkidlangan:

- avtosalonni qurishda UzAutoMotors AJ tomonidan tasdiqlangan, “Chevrolet” talablari asosida yaratilgan qurilish rejasi dasturi amal qilib olinishi lozimligi ;

- avtosalonning sotish binolariga boʻlgan 8 banddan iborat talablar keltirilib, unda bino va inshootlarning oʻzaro oʻrnashishi, tarkibi, jihozlanishi va 4 postli texnik xizmat koʻrsatish stanstiyasining ishlab chiqarish bazasi va malakali servis xizmat koʻrsatuvchi mutaxassislar boʻlishi lozimligi [6, 7, 8].

Namoyishlar zali, avtomobillar saqlash joyi, axborot aloqa vositalari va avtosalon xodimlariga talablarda quyidagi asosiy hollar keltirilgan:

- diler “Shevrolet” tomonidan tasdiqlangan brendlar majmui (savdo belgisi, logotiplar, koʻrsatkichlar va boshqalar) ishlatilishi va mebellar tanlanishi, binoning ichi rasmiylashtirilishi;

- mijozlar uchun qabulxonaning va kutish xonalarining jihozlanishi;

- ehtiyot qism va aksessuarlar saqlash va ularni sotish uchun maydon ajratilishi;

- diler “Shevrolet” tomonidan tavsiya etilgan axborot aloqa vositalari va dasturlaridan foydalanishi va dasturlarning himoyasini kafolatlashi;

- diler kamida 2 ta UzAutoMotors AJ da servis xizmati koʻrsatish boʻyicha oʻqitilgan mutaxassis va sotiladigan avtomobillar soniga koʻra 1 ta yoki 2 ta savdo maslahatchisini ishga olishi;

- avtomobillarni saqlash uchun qattiq qoplamali maxsus joylar ajratilgan boʻlishi.

Firma usulida xizmat koʻrsatish Respublikamizda tez surʼatlar bilan rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Magdiev Sh.P., Rasulov H.A. Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat koʻrsatish, taʼmirlash. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent, Ilm ziyo: 2011. -208 bet.

2. Кузнетсов Э.С., Болдин А.П. ва бошқалар. Автомобиллар техник эксплуатацияси. Дарслик. -Тошкент, Ворис-нашириёт: 2006. -630 бет.

3. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохиidinovich, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). Меры по снижению

экологического воздействия автопарка. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.

4. Икромов Н. А. ўгли Холматов С.У. Ҳайдовчиларнинг иш тажрибасини йўл транспорт ҳодисасига таъсирини ўрганиш // *Journal of new century innovations*. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 11-18.

5. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсумович, д-р техн. наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии, 59.*

6. Негматов С. С. и др. & Махаммаджонов, ХА (2022) // Исследование тепловой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих. *Universum: технические науки*, (11-5 (104)). – С. 47-53.

7. Ikromov N. A., To'raev S. A. Avtomobil patronlarining turli polimer materiallarini yutishini aniqlash // *Akademiya-xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali*.

8. Xalilbek o'g'li X. E. Ichki yonuv dvigatel detallarini qurum bosishini tekshirish // *World scientific research journal*. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 110-115.

